

TALABALARDA KVALIMETRIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

F.Nuradinov

Fakultetlararo pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

Annotation. This article describes the content of the development of qualimetric competence, forms of quality control and evaluation of the educational process, types and forms of evidence-based and interrelated control of educational monitoring, logical approaches to the implementation of pedagogical qualimetry and their content.

Key words: qualimetry, competence, mathematical and statistical analysis, quality of the educational process, deductive logic, inductive logic, rating, methodological support.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kvalimetrik kompetentlikni rivojlantirish mazmuni, ta'limgartabiyalariga jarayonining sifatini nazorat kilish va baholash shakllari, ta'limgartabiyalariga monitoringini ilmiy asoslangan va uzaro uzviy bog'langan nazorat turlari va ularning shakli, pedagogik kvalimetriya jarayonini amalga oshirishda mantiqiy yondashuvlar va ularning mazmuni ochib berilgan.

Аннотация. В данной статье описаны содержание развития квалиметрической компетентности, формы контроля качества и оценивания образовательного процесса, виды и формы научно обоснованного и взаимосвязанного контроля образовательного мониторинга, логические подходы в реализации педагогической квалиметрии и их содержание.

Kalit so'zlar: kvalimetriya, kompetensiya, matematik-statistik tahlil, ta'lim-tarbiya жараёни сифати, дедуктив мантиқий йўналиш, induktiv мантиқий йўналиш, рейтинг, методик таъминоти.

Ключевые слова: квалиметрия, компетентность, математико-статистический анализ, качество образовательного процесса, дедуктивная логика, индуктивная логика, рейтинг, методическое обеспечение.

Bizga ma'lumki, uzlusiz ta'limgartabiyalariga jarayonining sifatini nazorat kilish va baholashda tashxislash, ekspertiza, monitoring va pedagogik klalimetriyadan foydalaniladi. Pedagogik o'lchov nazariyasiga asoslangan kvalimetrik yo'naliish o'zining keng qamrovi, test jarayonining dahlsizligi, olingan nagijalarni matematik-statistik tahlil kilish va boshqalar bilan alohida ajralib turadi. Tahsil oluvchilarining rivojlanish darajasi va bilimlarni o'zlashtirish sifati haqida qat'iy aniq natijalarni olish imkonini beradi. Nazariy kvalimetrik yo'naliishda tashkil etiladigan nazorat an'ananiy nazorat turlaridan tadqiq etilayotgan ob'ektning o'zgargan bilim, ko'nikma va malakalari sifatini baholashda ko'p miqdordagi axborot va miqdoriy baholash imkoniyati mavjudligi bilan farqlanadi.

Ta'limgartabiyalariga monitoringini ilmiy asoslangan va uzaro uzviy bog'langan nazorat turlari va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'limgartabiyalariga jarayonidan ko'zlangan natija erishish va sifatini aniqlash imkonini beradi. Jahonning rivojlangan mamlakatlari ta'limgartabiyalariga monitoringida test topshiriqlaridan foydalaniladi va bu metod yordamida ko'p

sondag'i tahsil oluvchilarning qisqa muddatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini sifatini aniqlanadi. Olingan natijalarga muvofiq talabalarga individual yondashish, uzuksiz ta'lim tizimi turlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini aniqlash, ularning o'rtacha qiymatini aniqlash va baholash, olingan natijalarni qayd etish amalga oshiriladi.

Kvalimetriyaning amaliy tarmog'i bo'lgan pedagogik kvalimetriyada kadrlarni tayyorlashda malaka talablari etalon sifatida qabul qilingan bo'lib, pedagogik kadrlarning kasb malakasi va pedagogik mahorati sifati takqoslash orqali aniqlanadi. Raqobatbardosh pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayoni maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarishni rejalashtirish, o'quv jarayonini modernizatsiyalashdir. Mazkur jarayonni metodik va texnik jihatdan ta'minlashni talab etadi. Pedagogik kvalimetriya yillar davomida to'plangan tajribalar, dalillar asosida vujudga kelgan va shakllangan ilmiy-nazariy fan bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan pedagogik innovatsiya va unga bog'liq holda o'qituvchining pedagogik faoliyatini yaxlit o'rganadi.

Pedagogik kvalimetriya ko'p qirrali pedagogik jarayonga bog'liq holda o'qituvchining pedagogik faoliyatini o'rganib, pedagogika fanlari sohalari ichida eng muhim o'rinni tutadigan, lekin kam o'rganilgan soha sanaladi. SHuni qayd etish kerakki, pedagogik kvalimetriya pedagogik jarayon va o'qituvchinipg pedagogik faoliyatiniig sifatini belgilaydi. Pedagogik kvalimetriyaning metodologik muammolar shu kunga qadar ilmiy tadqiqotchilarning diqqatidan chetda qolgan va bu sohadagi muammolar o'z echimini kutmoqda. Adabiyotlar tahlili pedagogik kvalimetriyaning metodologik asoslari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ta'lim muassasalari oldiga quyiladigan davlat va ijtimoiy buyurtmalarga bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, uning metodologik asoslari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining mantiqiy birligi qonuniyati asosida rivojlanganligini ko'rsatdi.

"Pedagogik kvalimetriyaning tadqiqot ob'ekti davlat va ijtimoiy buyurtmalar zimmasiga yuklangan ta'lim muassasasiniig mazkur buyurtmalarni bajarish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni sifati, tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etilishi va boshqarilishi o'qituvchi pedagogik faoliyatning maqsadga muvofiq tashkil etilishi sifatini nazorat qilish va baholash sanaladi.

Pedagogik kvalimetriya jarayonini amalga oshirishda quyidagi mantiqiy yondashuvlar mavjud:

- 1) pedagogik kvalimetrik jarayonni deduktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etish;
- 2) pedagogik kvalimetrik jarayonni induktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etish.

Pedagogik kvalimetrik jarayonning deduktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etilishiga oliy ta'lim muassasalaring attestatsiyadan o'tkazish, akkreditatsiyalash, oliy ta'lim muassasalarining reytingini aniqlash jarayonlarini misol qilib olish mumkin. Mazkur jarayonda ekspertiza metodi vositasida oliy ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy hujjatlari, o'quv kurslarining didaktik va metodik ta'minoti, moddiy-texnik bazasi tahlil qilinib, ekspertizadan o'tkaziladi. YUqorida qayd etiltan hujjatlar ekspertizadan o'tgandan so'ng, oliy ta'lim muassasasida tashkil etiladigan pedagogik jarayon kuzatiladi va tahlil qilinadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini aniqlash maqsadida talabalardan muayyan masalalarni qamrab olgan so'rovnoma o'tkaziladi. So'rovnoma natijalari tahlil kilinib, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar tayyorlanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv kurslari bo'yicha talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maksadida fanlardan tuzilgan test o'tkaziladi va olingan natijalar tahlil etilib, oliy talim muassasasida tashkil etiladigan pedagogik jarayonning samaradorligi aniqlanadi. Muayyan o'quv fanlari bo'yicha talabalarning

o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida suhbat o'tkaziladi va natijalar tahlil etiladi. YUqorida qayd etilgan barcha jarayonlardan olingen natijalar matematik-statistik metod vositasida tahlil qilinadi va malumotlar umumlashtirilib, oly ta'lif muassasasida tashkil etiladigan pedagogik jarayonning samaradorligi hakida umumiy xulosa tayyorlanadi.

Pedagogik kvalimetrik jarayonni induktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etilishiga talabalarnnpg kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, kasbiy layoqatini baholash va o'z-o'zini baholash jarayoni kiradi. Bu jarayonda professor-o'qituvchilarni attestatsiyadan o'tkazish maqsadida ularning pedagogik faoliyati tahlil etiladi. Tanlovdan tanlovgacha bo'lgan davrda amalga oshirilgan o'kuv ma'naviy-ma'rifiy ishlari ilmiy, ilmiy-metodik sohada olib borilgan izlanishlari, chop etilgan ilmiy ishlari mas'ul bo'lgan o'quv kursi bo'yicha tayyorlangan o'quv-metodik majmuuning maqsadga muvofiqligi ekspertizadan o'tkaziladi.

Mazkur o'qituvchining pedagogik faoliyatining samaradorligini aniqlash maqsadida namunaviy mashg'ulotlar mutaxassislar va ekspertlar tomonidan tahlil etiladi va samaradorligi haqida xulosa chiqariladi. Muayyan o'quv kursi bo'yicha talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashda kvalimetriyaning asosiy metodlaridan biri test topshiriqlaridan foydalanish ham kvalimetrik jarayonni induktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etilishiga misol bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lif-tarbiya jarayonida pedagogik kvalimetriya metodlaridan foydalanish ta'lif samaradorligini aniqlash, mavjud kamchiliklarga barham berishga zamin tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalikov A.A. Oliy ta'lif muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish. Monografiya. – Toshkent: Iqtisod Moliya. – T. – 2015, –435 b.
2. Xalikov A.A. Oliy ta'lif muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish. Monografiya. – Toshkent: Iqtisod Moliya. – T. – 2015, –435 b.
3. YAkovlev E.V. Kvalimetricheskiy podxod v pedagogicheskem issledovanii: novoe vedenie // Pedagogika, 1999. – № 3. – S. 49-54.
4. YAkovlev E.V. Pedagogicheskiy eksperiment: kvalimetricheskiy aspekt: Monografiya. – CHelyabinsk: CHGPU, 1998. – 136 s.